


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 1 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 1 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 1

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 1



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-1>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

TARIX

1. Toshpolatov Bekzod Shuxratovich, Ganiyeva Nafisa Rustamkulovna ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА АЁЛЛАРНИНГ ЎРНИ ВА ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ: ХАЛҚАРО ЁНДАШУВЛАР ВА ЎЗБЕКИСТОН ТАЖРИБАСИ ТАҲЛИЛИ.....	7
2. Bekzod Toshpolatov, Nafisa Ganiyeva ENSURING GENDER BALANCE IN THE EDUCATION AND SCIENCE SYSTEM: THE STRATEGIC ROLE OF WOMEN'S PARTICIPATION AND THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN.....	11
3. Sharopova Nigora Akbarovna UMUMTA'LIM MAKTABLARI TIZIMIDA IXTISOSLASHGAN MAKTAB-INTERNATLARI FAOLIYATI (O'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARI MISOLIDA).....	15
4. Boboqulov Lochinbek Zikir o'g'li ANTI-K VA ILK O'RTA ASRLARDA SO'G'D VA XITOIY MADANIY ALOQALARI.....	19
5. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich XX ASRNIH IKKINCHI YRMIIDAGI ILMIIY MUHOZARALARDA OROL DENGIZI MUAMMOSI: INKIROZ, OGOHLANTIIRISHLAR VA HAL QILISH IULLARI.....	23
6. Abdullayev Timur Pulatovich, Sapayeva Sadoqat Odilbekovna MEHNAT MIGRATSIYASI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	28
7. Abdullayev Timur Pulatovich., Jabbarov Avazbek Adxambek o'g'li. MEHNAT MIGRATSIYASI VA MILLIY IDENTITET.....	34
8. Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li. QADIMGI XORAZMDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINING RIVOJIDA SAVDO YO'LLARINING O'RNI.....	40
9. Tadjiyeva Nargiza Djumabayevna. XORAZM VILOYATI IJTIMOII-IQTISODII HAYOTIDA TATAR DIASPORASINING TUTGAN O'RNI.....	44

FILOLOGIYA

1. Sultanova Fazilat, Ro'ziyeva Muhayyo Erkinovna MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES (ENGLISH LANGUAGE): A COMPETENCY-BASED PERSPECTIVE.....	48
2. Qo'shnazarova Mehribon Qo'zibayevna XORAZM TARIXNAVISLIK MAKTABI ASARLARIDA KASB-HUNAR LEKSIKASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	52
3. Ro'zimova Dildora Khujaakhmedovna THE THEORY OF PROJECT BASED LEARNING IN TESOL.....	57

IQTISOD

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna YASHIRIN IQTISODIIYOTNING MINTAQ IQTISODIIY O'SISHIGA SALBIY TA'SIRLARINI BARTARAF QILISH.....	61
--	----

2. Egamberdiev Egamberdi

THE ROLE OF INTEGRATED DIGITAL MARKETING STRATEGIES IN ENHANCING SME COMPETITIVENESS IN UZBEKISTAN.....65

3. Matkarimov Mansur Maksudovich

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING IQTISODIY-SIYOSIY TAHLILI....69

PEDAGOGIKA VA ANIQ FANLAR

1. Yuldosheva Sabohat Norimon qizi

GEOMETRIK ISBOTLASHDA DEDUKTIV–INDUKTIV YONDASHUVLARNING UYG‘UNLASHUVI.....75

FALSAFA

1. Майлиев Азамат Фарходович

ЁШЛАР ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ВА НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ.....78

Tadjiyeva Nargiza Djumabayevna
Ma'mun universiteti NTM, Tarix kafedrası o'qituvchisi
E-mail: tadjiyevanargiza1984@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0004-2757-0940>

XORAZM VILOYATI IJTIMOY-IQTISODIY HAYOTIDA TATAR DIASPORASINING TUTGAN O'RNI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18519542>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Xorazm viloyatida tatar diasporasining shakllanishi, ularning XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmida mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi o'rni tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda tatarlarning savdo-sanoat, maorif, matbaachilik va boshqaruv tizimidagi faoliyati yoritilib, sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ularning hudud taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ochib beriladi. Shuningdek, memuar manbalar asosida tatar diasporasining mahalliy jamiyatga integratsiyalashuv jarayonlari ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xorazm, tatar diasporasi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, savdo-sanoat, maorif, sovet davri.

АННОТАЦИЯ

В статье на основе исторических источников и научной литературы анализируется формирование татарской диаспоры в Хорезмской области и её роль в социально-экономической и культурной жизни региона в конце XIX – первой половине XX века. Освещается участие татар в торгово-промышленной сфере, образовании, издательском деле и системе управления, а также процессы их социальной адаптации в условиях становления советской власти.

Ключевые слова: Хорезм, татарская диаспора, социально-экономическая жизнь, торговля, образование, советский период.

ANNOTATION

This article analyzes the formation of the Tatar diaspora in the Khorezm region and its role in the socio-economic and cultural life of the region in the late 19th and early 20th centuries. Based on historical and memoir sources, the contribution of Tatars to trade, industry, education, publishing, and administration is examined. Special attention is paid to the processes of social adaptation and integration of the Tatar diaspora during the early Soviet period.

Keywords: Khorezm, Tatar diaspora, socio-economic life, trade and industry, education, Soviet period.

Kirish

Xorazm vohasi Markaziy Osiyoning qadimiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo'lib, bu hududda asrlar davomida turli etnik guruhlar o'zaro aloqada yashab kelgan. Xususan,

tatar millatiga mansub aholi vakillari Xorazm hududiga turli tarixiy davrlarda ko'chib kelib, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin egallagan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Volga bo'yi bilan Xorazm o'rtasidagi savdo-diplomatik aloqalar Bolg'or davlati va Qozon xonligi davridayoq shakllangan. XVI asr o'rtalarida Qozon va Ostarxon xonliklarining Rossiya tomonidan bosib olinishi natijasida tatar aholisining bir qismi diniy va siyosiy bosimlardan qochib, Markaziy Osiyo, jumladan Xorazmga ko'chib kelgan [1]. Bu jarayon Xorazmda tatar diasporasining shakllanishi uchun muhim tarixiy zamin bo'ldi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tatar ziyolilari va ishbilarmonlarining Xorazmga ko'chib kelishi hududda savdo-sanoat, matbaachilik va maorif sohalarining rivojlanishiga turtki berdi. Shu bois, tatar diasporasining Xorazm viloyati ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rnini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Xorazm va umuman Turkiston hududida tatar diasporasi tarixini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar rus, o'zbek va tatar tarixshunosligida alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Bu yo'nalish doirasida tatarlarning mintaqaga ko'chib kelish omillari, ularning ijtimoiy moslashuvi, maorif va madaniy hayotdagi faolligi, shuningdek, turli siyosiy davrlarda (xususan, sovet hokimiyati qaror topishi jarayonida) tutgan o'rni turli manbalar asosida tahlil qilinadi. Mazkur masala bo'yicha memuar, ilmiy tadqiqot, davriy matbuot va arxiv materiallari o'zaro qiyosiy o'rganilganda, tatar diasporasining Turkiston jamiyatiga kirib borishi ko'pincha diniy-axloqiy qadriyatlar umumiyligi, turkiy tillar yaqinligi hamda savdo va ma'rifat orqali shakllangan aloqalar orqali kechganini ko'rsatadi.

Ayniqsa, Zaki Validi To'g'onning memuar asarlari Turkiston hududida yashagan tatar va boshqird ziyolilarining mahalliy jamiyatga moslashuvi masalasini yoritishda muhim manba sifatida e'tiborga loyiq. Muallif o'z kuzatuvlari va xotiralari asosida tatar-boshqird ziyolilarining mahalliy muhitdan ajralib qolmaganini, aksincha, umumiy diniy (islomiy) qadriyatlar, madaniy o'xshashliklar hamda kundalik ijtimoiy munosabatlar orqali mahalliy jamiyat tarkibiga tezroq integratsiyalashganini ta'kidlaydi [2]. Bu holat tatar diasporasining Turkiston va Xorazm sharoitida ijtimoiy barqaror mavqega ega bo'lishiga, ularning maorif, madaniyat, savdo va jamoatchilik hayotidagi faolligini kuchaytirishga xizmat qilgan omillardan biri sifatida baholanishi mumkin.

A. Rasulovning “Turkiston xalqi bag'rikengligi” nomli tadqiqotida XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida shakllangan millatlararo munosabatlar tizimi chuqur tahlil qilinadi. Muallifning ta'kidlashicha, mintaqada yashagan turli etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, diniy bag'rikenglik va ijtimoiy hamkorlik Turkiston jamiyatining barqaror rivojlanishida muhim omil bo'lgan. Shu jarayonda tatar diasporasi vakillari muhim vositachi kuch sifatida namoyon bo'lgan. Ularning rus tilini mukammal bilishi, bir vaqtning o'zida mahalliy turkiy xalqlarning tili, dini va urf-odatlarini yaxshi o'zlashtirgani tatarlarni millatlararo muloqot va hamkorlikni mustahkamlovchi ijtimoiy guruhga aylantirgan [3]. Natijada, tatar diasporasi Turkistonda ijtimoiy muvozanatni saqlash, maorif va madaniyat sohalarida hamkorlikni rivojlantirishda ijobiy rol o'ynagan.

V.V. Bartold o'zining tarixiy tadqiqotlarida esa tatarlarning Xorazm vohasidagi iqtisodiy hayotdagi o'rniga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, tatar savdogarlari va tadbirkorlari Volga bo'yi, Kavkaz va Markaziy Osiyo o'rtasidagi savdo aloqalarining rivojlanishida muhim bo'g'in vazifasini bajargan. Ular orqali Xorazm hududiga nafaqat tovarlar, balki yangi xo'jalik yuritish tajribalari, savdo madaniyati va iqtisodiy munosabatlar shakllari kirib kelgan [1]. Bartold tatarlarning ushbu faoliyati Xorazm vohasida iqtisodiy integratsiya jarayonlarini jadallashtirganini va mintaqaning tashqi savdo aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilganini ta'kidlaydi.

Shuningdek, A. Rasulov, A. Isokboev va D. Nasretdinovlarning “**Татары в Туркестане на изломе эпох**” nomli fundamental tadqiqotida sovet hokimiyatining Turkistonda qaror topishi va mustahkamlanishining dastlabki yillarida tatar diasporasining siyosiy va ijtimoiy jarayonlardagi o'rni keng qamrovda tahlil qilingan. Mualliflar tatar diasporasini yangi sovet tuzumining mintaqada joriy etilishida muhim ijtimoiy-siyosiy vositachi kuch sifatida baholaydilar. Tadqiqotda ta'kidlanishicha, tatar ziyolilari va siyosiy faollarining rus tilini mukammal bilishi, sovet mafkurasi bilan tanishligi hamda bir vaqtning o'zida mahalliy turkiy xalqlarning diniy, madaniy va ijtimoiy

xususiyatlarini chuqur anglagani bolsheviklar tomonidan ularga alohida e'tibor qaratilishiga sabab bo'lgan [4].

Asarda keltirilgan ilmiy xulosalarga ko'ra, aynan tatar diasporasi vakillari sovet hokimiyatining tashkiliy, targ'ibot va ma'muriy ishlarida faol ishtirok etib, yangi siyosiy tizimning mahalliy jamiyat tomonidan qabul qilinishini osonlashtirgan. Mualliflar tatarlarning partiya va davlat organlaridagi faoliyati, matbuot va maorif sohasidagi ishtiroki orqali sovet hokimiyatining ijtimoiy tayanchini mustahkamlashga xizmat qilganini asosli dalillar bilan ko'rsatib beradilar. Shu jihatdan mazkur tadqiqot tatar diasporasining Turkistondagi sovet davri boshidagi ijtimoiy-siyosiy mavqeini yoritishda muhim ilmiy manba sifatida e'tirof etiladi [4].

Tadqiqot metodlari

Mazkur maqolada tatar diasporasining Xorazm viloyati ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rnini ilmiy asosda yoritish maqsadida tarixiylik, tizimli yondashuv, qiyosiy-tarixiy hamda manbashunoslik metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tarixiylik metodi orqali tatar diasporasining Xorazm hududiga kelib joylashuvi, ularning ijtimoiy moslashuvi va faoliyatining turli bosqichlari muayyan tarixiy sharoitlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi. Tizimli yondashuv metodi yordamida tatar diasporasining savdo-sanoat, maorif, madaniyat va boshqaruv tizimidagi faoliyati o'zaro aloqador ijtimoiy jarayonlar majmui sifatida ko'rib chiqildi.

Qiyosiy-tarixiy metod asosida Xorazm viloyatidagi tatar diasporasining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati Turkistonning boshqa hududlaridagi shunga o'xshash jarayonlar bilan solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Manbashunoslik yondashuvi esa tadqiqotda foydalanilgan memuar manbalar, ilmiy adabiyotlar va tarixiy tadqiqotlarning kelib chiqishi, mazmuniy xususiyatlari hamda ilmiy ishonchliligini aniqlashga xizmat qildi. Mazkur metodlarning o'zaro uyg'unligi natijasida tatar diasporasining Xorazm viloyati ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rnini kompleks va tizimli tarzda tahlil qilinib, asosli ilmiy xulosalar chiqarildi.

Muhokama

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tatar diasporasi Xorazm jamiyatida nisbatan tez ijtimoiy moslashgan etnik guruhlardan biri bo'lgan. Buning asosiy omillari sifatida ularning mahalliy aholi bilan umumiy diniy e'tiqodga ega bo'lishi, turkiy tillar guruhiga mansub tillarda so'zlashishi hamda savdo-sanoat sohasidagi uzoq yillik tajribasini ko'rsatish mumkin. Mazkur omillar tatar diasporasi vakillarining kundalik ijtimoiy munosabatlar tizimiga tez kirib borishiga, mahalliy aholi bilan o'zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan aloqalarni shakllantirishiga xizmat qilgan. Natijada tatarlar Xorazm jamiyatida iqtisodiy jihatdan faol, ijtimoiy jihatdan barqaror qatlam sifatida namoyon bo'lgan.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida esa tatar diasporasining mazkur ijtimoiy faolligi yangi siyosiy tizimni joriy etish jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan. Tatar ziyolilari va siyosiy faollari mahalliy jamiyat bilan sovet hokimiyati o'rtasida vositachi kuch sifatida maydonga chiqqan bo'lib, ular yangi siyosiy va ma'muriy institutlarning hududda qaror topishiga amaliy hissa qo'shgan. Xususan, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil topgach, uning rahbar va ijroiya organlarida tatar millatiga mansub kadrlarning faoliyat yuritishi ushbu jarayonning yaqqol dalili hisoblanadi. Bu holat tatar diasporasining nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy jarayonlarda ham muhim o'rin egallaganini ko'rsatadi hamda ularning sovet davri boshidagi Xorazm jamiyatidagi mavqeini tasdiqlaydi [4].

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tatar diasporasi Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim va barqaror rol o'ynagan. Ularning faoliyati, avvalo, mintaqada savdo aloqalarining kengayishi va hududlararo tovar ayirboshlash tizimining rivojlanishida namoyon bo'lgan. Tatar savdogarlari Volga bo'yi, Kavkaz va Markaziy Osiyo o'rtasidagi savdo yo'llarida faol ishtirok etib, Xorazmni muhim iqtisodiy bog'lovchi hududlardan biriga aylantirishga xizmat qilgan. Natijada, mintaqaning iqtisodiy hayotiga yangi bozor munosabatlari, savdo madaniyati va xo'jalik yuritish tajribalari kirib kelgan.

Shuningdek, tatar diasporasi vakillari sanoat tarmoqlarini shakllantirish va rivojlantirishda ham sezilarli hissa qo'shgan. XX asr boshlarida paxta tozalash, yog'-moy ishlab chiqarish hamda boshqa sanoat korxonalarida tatar mutaxassislarining faoliyat yuritishi Xorazm viloyatida sanoatlashuv jarayonlarining jadallashuviga zamin yaratgan. Bundan tashqari, tatar ziyolilari zamonaviy ta'lim tizimini joriy etish, yangi usul maktablari va o'quv muassasalarini tashkil etish orqali hududda savodxonlik darajasining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Tatar diasporasining matbaachilik va noshirlik sohasidagi faoliyati ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalish orqali Xorazmda ilmiy-ma'rifiy adabiyotlarning tarqalishi va jamoatchilik fikrining shakllanishi tezlashgan. Umuman olganda, tatar ziyolilarining ko'p qirrali faoliyati Xorazm viloyatida ijtimoiy va madaniy modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirib, mintaqaning zamonaviy taraqqiyot yo'liga chiqishida muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Xorazm viloyatida tatar diasporasining ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'rni tarixiy jihatdan muhim va ko'p qirrali ahamiyatga ega bo'lgan. Tatar diasporasi vakillarining savdo-sanoat, maorif va madaniyat sohalaridagi faoliyati mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy infratuzilmasining shakllanishi hamda madaniy hayotining boyishiga sezilarli hissa qo'shgan. Ular orqali Xorazm hududida hududlararo savdo aloqalari kengayib, zamonaviy xo'jalik yuritish tajribalari, ta'lim va ma'rifatning yangi shakllari joriy etilgan.

Shuningdek, tatar diasporasining mahalliy jamiyatga moslashuvi va ijtimoiy jarayonlardagi faolligi mintaqada millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitining mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Tadqiqot davomida olingan ilmiy xulosalar Xorazm viloyatidagi diasporalar tarixini, xususan, tatar diasporasining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlardagi o'rnini yanada chuqurroq o'rganish uchun muhim nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot natijalari nafaqat mintaqaviy tarixshunoslikni boyitadi, balki Markaziy Osiyodagi etnik jarayonlar va diasporalar tarixini tadqiq etishda ham ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

-
- 1.В.В. Бартольд,Сочинения. Т.3. М.: 1965. – В. 240–243.
 - 2.Тоган З.В. Воспоминания. Кн. II. – Уфа: Китап, 1998. – С. 8–9.
 - 3.Расулов А. Туркистон халқи бағрикенглиги. – Тошкент, 2011. – Б. 10–12.
 - 4.Расулов А., Исоқбоев А., Насретдинова Д. “Татары в Туркестане на изломе эпох. Начало XX века”.– Казань: Институт истории им. Ш. Марджани АН РТ, 2021. – С. 37–39.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].